

TERMINLAR TARJIMASI: USULLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Mahmudova Marjona Nosir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy Filologiya fakulteti, 4-bosqich talabasi.

E-mail: mahmudovamarjona544@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870713>

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminlar tarjimasi jarayonidagi muammolar, tarjimada qo'llaniladigan asosiy usullar va noto'g'ri yondashuvlar tahlil qilinadi. Terminlarning boshqa tillardan o'zlashishi va ularni tarjima qilishda uchraydigan murakkabliklar, tarjimoning vazifasi, shuningdek, mukammal tarjimaga erishish uchun tavsiya etilgan yondashuvlar yoritiladi. Makarova va Kashper tomonidan taklif etilgan nazariy usullar asosida termin tarjimasining samarali yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Termin, tarjima, usul, muammo, ekvivalent, kalkalash, transliteratsiya, tasviriy usul.

ПЕРЕВОД ТЕРМИНОВ: МЕТОДЫ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы перевода терминов, основные методы, используемые в переводе, а также типичные ошибки и недопустимые подходы. Анализируются трудности, возникающие при заимствовании терминов из других языков, роль переводчика и рекомендации по обеспечению точного и адекватного перевода. Основное внимание уделяется теоретическим подходам, предложенным Макаровой и Кашпером.

Ключевые слова: Термин, перевод, метод, проблема, эквивалент, калькирование, транслитерация.

TRANSLATION OF TERMS: METHODS, PROBLEMS, AND SOLUTIONS

Abstract. This article explores the problems encountered in term translation, the main methods applied in practice, and the incorrect approaches that should be avoided. It analyzes the difficulties arising from borrowing terms from other languages, the role of the translator, and recommended strategies for achieving accurate and adequate translation. The theoretical frameworks of Makarova and Kashper are used as a basis to outline effective approaches to term translation.

Keywords: Term, translation, method, problem, equivalent, calque, transliteration.

Kirish: Tarjima faoliyati til vositalarining oddiy almashtirilishidan iborat bo'lmay, balki ma'no, kontekst, madaniy va mantiqiy moslikni ta'minlashga qaratilgan murakkab jarayondir. Xususan, terminlar tarjimasi ushbu jarayonning eng nozik va mas'uliyatli qirralaridan biri hisoblanadi. Chunki, terminlar muayyan soha, ilmiy yo'nalish yoki texnik tizim doirasida aniq tushunchani ifodalovchi birliklar bo'lib, ularni tarjima qilishda aniqlik, izchillik va ilmiy asoslanganlik talab etiladi. Bugungi globalashuv sharoitida tillararo ilmiy-texnik axborot almashinuvi jadallashgani sari, xorijiy tillardan o'zlashayotgan terminlar soni ortmoqda. Bu esa tarjimon oldiga ikki yoqlama vazifani qo'yadi: birinchidan, xorijiy atamani to'g'ri tushunish, ikkinchidan, uni tarjima tilida maqbul, tushunarli va to'g'ri muqobil bilan ifoda etish. Aynan shu nuqtai nazardan, terminlarning tarjimasiga doir usullar, muammolar va samarali yechimlar masalasi bugungi tarjimashunoslikda dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiy tahlillar: Zamonaviy fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida yangi terminlar doimiy ravishda paydo bo'lmoqda yoki boshqa tillardan o'zlashmoqda. Ushbu jarayon o'z navbatida terminlarni tarjima qilishda turli yondashuv va tamoyillarni hisobga olishni talab etadi. Tarjimashunoslikda termin tarjimasiga doir maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda mavjud muammolar va yechimlar, shuningdek, tarjimon e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar belgilab berilgan. Terminlarni tarjima qilishda birinchi navbatda ularning asliyatdagi ma'nosini to'g'ri anglash va aniq ifodalash talab etiladi. Har qanday termin o'ziga xos ilmiy yoki texnik kontekstda ishlatiladi va u tarjima tilida ham ayni mazmunni to'liq ifodalovchi muqobil bilan berilishi lozim. Tarjimon ushbu terminning semantik yukini, ya'ni u anglatayotgan aniq tushunchani puxta bilishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, terminologik bilim va sohaga xos bilimlarning mavjud bo'lishini talab qiladi.

Ayrim hollarda asliyatdagi terminga tarjima tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobil topilmasligi mumkin. Bunday vaziyatda sinonim yoki yaqin ma'nodagi muqobil variantlar qo'llanilishi mumkin. Biroq bu usul faqat istisno holatlarda qo'llanilishi tavsiya etiladi, chunki sinonimlar terminologik qat'iylikni buzishi va noaniqlikka olib kelishi mumkin. Termin tarjimasining muhim xususiyatlaridan biri ularning ko'pchilik hollarda birgina, aniq ma'noni anglatuvchi birliklar bo'lishidir. Ya'ni, ular monosemantik bo'lib, ko'p ma'nolilik terminlar tabiatiga xos emas. Shu sababli, tarjimada noto'g'ri konnotatsiyadan qochish, terminni kontekstga mos holatda to'g'ri talqin qilish talab etiladi. Terminlarni tushunishda yuzaga keladigan muammolardan yana biri ularning xorijiy voqelikni ifodalashidir. Bunday terminlar ko'pincha baynalmilal xususiyatga ega bo'ladi va turli tillarda o'xshash shakllarda uchraydi. Shuning uchun ularni tushunish odatda qiyin emas. Biroq tarjimon ularni tarjima tilida qanday usulda ifodalashni aniqlashda ehtiyotkor bo'lishi zarur. Bu holatda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

So'zma-so'z tarjima,
Izohli (tushuntiruvchi) tarjima,
Qisman yoki to'liq transliteratsiya,
Transliteratsiya va tarjimaning birgalikdagi qo'llanilishi.

Har bir termin holatida tarjima usuli individual tarzda tanlanadi, ya'ni asliyatdagi terminning kontekstdagi vazifasi va ma'nosi asosida belgilanadi. Eng muhimi tarjimada terminning asl mohiyati buzilmasligi va uni sun'iy milliylashtirishga yo'l qo'yilmasligidir.

Terminlarni tarjima qilishda nazariy va amaliy tamoyillarga amal qilish bilan bir qatorda, ba'zi noto'g'ri yondashuvlardan qat'iy qochish zarur. Quyida termin tarjimasida oqlab bo'lmaydigan holatlar keltiriladi:

1. Terminni tasviriyl yoi bilan tarjima qilish.

Bu usul terminologik aniqlikni buzadi va uning ilmiy mohiyatini xiralashtiradi. Masalan: *epigraf* – *sarnaqsh*, *prolog* – *sarahbor*, *kolorit* – *nash'u namo*. Ushbu tarjimalar tasvirga asoslangan bo'lib, ilmiy termin sifatida aniqlikdan yiroqdir.

2. Terminning ma'nosidan kelib chiqib, sharhli-izohli tarzda tarjima qilish.

Bu yondashuv terminning ixcham va qat'iy shaklini buzib, uni ortiqcha izohga aylantiradi.

Misollar: *tipologiya* – *qiyosiy-qoliplovchi sharh*, *akademik uslub* – *jiddiy sipo uslub*, *intim* – *lisoniy-botiniy*. Bunday shakllar terminning aniq ma'nosini emas, balki keng talqinini beradi, bu esa tarjimada noaniqlikka olib keladi.

3. Qadimgi terminlarni ularning tarixiy (qadimiy) shakllari bilan almashtirish.

Bunday almashtirishlar zamonaviy ilmiy kontekstdan uzoqlashishga olib keladi. Misollar: *fizika* – *hikmat*, *matematika* – *riyoziyot*, *geometriya* – *handasa*, *botanika* – *nabotot*. Ushbu variantlar tarixiy-madaniy jihatdan qiziqarli bo'lishi mumkin, biroq amaldagi ilmiy termin sifatida nojoizdir.

4. Sun'iy yangi atamalar yasash.

Tarjima jarayonida mavjud bo'lmagan, so'z yasash qoidalariga to'liq tayanmagan terminlarni ixtiro qilish ilmiylikdan yiroq bo'ladi. Misollar: *ekstrasensorika* – *sehrshunoslik*, *kafedra* – *minbargoh*, *fakultet* – *kulliyot*, *rayon* – *depara*, *nohiya*, *romantik* – *ma'sumiy*. Bu kabi misollar mavjud terminni ortiqcha milliylashtirishga urinishdir va ularning termin sifatida tan olinishi shubhali.

5. Terminlar tarjimasida barqarorlikni buzish, ya'ni sinonimik har xillikka yo'l qo'yish.

Terminologiyada sinonimlikka yo'l qo'yish barqarorlikni buzadi, matnda chalkashlik yuzaga keladi. Masalan: *zamon va makon* – *fazo va vaqt* – *makon va vaqt*, *gumondor* – *gumon qiluvchi*. Bunday holatlar yagona terminologik norma yo'qligidan dalolat beradi va ilmiy matn aniqligini pasaytiradi.

Tarjima jarayonida faqatgina tushunchani tarjima qilish kerak degan fikr xatodir, matnning to'liqligi saqlanib qolishi kerak. Tarjimon uchun matnda butun mazmunni tashkil etuvchi birikmani topishi va terminni boshqa so'zlardan farqlay olishi muhim. Agar tarjimon so'zning ma'nosi yoki chet tilidagi ekvivalentida ikkilansa, terminologik lug'atlarda, o'xshash matnlarda yoki terminologik ma'lumotlar bazasidan qidiradi. Agar termin yangi bo'lsa, tarjimon tasvirlash, kalka yoki neologizm tanlash usullaridan foydalanishi mumkin. Terminning tarjima tiliga mukammal o'g'irlashiga xizmat qiluvchi bir necha usullar mavjud. Har bir tarjima nazariyasiga hissa qo'shgan o'quv qo'llanmalardagi ilmiy adabiyotlardan olingan usullar bilan tanishib chiqamiz.

Makarova (2008) termin tarjimasida quyidagi asosiy usullardan foydalanishni taklif qiladi:

1. Transliteratsiya - terminning tovush tarkibini saqlagan holda tarjima tilida yozilishi. Bu usul natijasida ko'pincha yangi neologizmlar vujudga keladi.

2. Kalka usuli - terminning tarkibiy qismlarini tarjima tiliga so'zma-so'z ko'chirish orqali ifodalash.

3. Tasvirlash usuli - terminning mazmunini ochib beruvchi izohli tarjimadan foydalanish.

4. Aniqlashtirish usuli - umumiyroq terminni aniqroq ekvivalent bilan ifodalash.

5. Qo'shimcha usuli - termin tarjimasiga tushunishni osonlashtiruvchi ma'no yuki ortirilgan so'z yoki iborani qo'shish.

Yana bir tarjimashunos, tilshunos olim Kashper A.I terminlarni tarjima qilishda quyidagi imkoniyatlar majudligini yozadi va ularga quyidagicha misollarni keltirib o'tadi:

Terminni kalkalash, ya'ni butun termin yoki uning qismi ko'chirib olinadi: *potential* - потенциал, *isolator* - изолятор.

Ko'rib turganimizdek, o'qilishdagi yoki yozilishdagi o'xshashlik saqlanib qolinyapti.

Kalkalash usuli termin international bo'lgan holatda qo'llaniladi. Bunday termin-internatsionallar qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin shuni hisobga olish kerakki, lotin yoki grek tilidan kelib chiqqan va barcha yevropa tillarida yozilishi, o'qilishi o'xshash bo'lgan terminlarni tarjimonning "soxta do'stlari" deb nomlash mumkin. Masalan, *Originalgäret* – "оригинальный нпубop" - asbob asl nusxasi emas, "образец нпубop" - asbob andazasi deb tarjima qilinadi.

So'zma-so'z tarjima. Bu holatda termin yoki uning elementlari so'zma-so'z tarjima qilinadi. Bu yerda o'qilishdagi yoki yozilishdagi o'xshashlik saqlanib qolmaydi. *Wasserstoffbombe* - vodorod bombasi. Bu usul kalka usuliga nisbatan ko'proq uchraydi. Agar termin va uning so'zma-so'z tarjimasi ikki tilda ham bir ma'noni anglatrsa, shu usul qo'l keladi.

Ekvivalent topish usuli. Termining kalka yoki so'zma-so'z tarjima usullari bilan tarjima qilinmagan, tarjima tilida maxsus termin mavjud bo'lganda bu usul qo'llaniladi. Bunday misollar ko'p uchraydi: *Weltraumfahrt* - astronomiya (kosmosda uchish nazariyasi va amaliyoti), *Erdöl-neft* va h.k. Albatta, bu yerda so'zma-so'z tarjima ma'nosiz so'zga aylantirardi: *Drehkopf* - aylanuvchi bosh emas, balki to'pponcha boshi.

Tasvirlash usuli. Agar termining biror tilda kalka yoki so'zma-so'z tarjima qilish imkoni bo'lmasa, ekvivalenti ham mavjud bo'lmasa, shu usuldan foydalaniladi. *Rückströmfreiheit-teskari mashaqqatli vazifa* ekanligini guvohi bo'lib turibmiz. So'zning bu tarjimasida tasvirlash usuli eng muqobili bo'lib, qolgan tarjima usullari orqali tarjimada chalkashlik yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa: Terminlarni tarjima qilish tarjimashunoslikning alohida e'tibor talab qiluvchi murakkab sohasidir. Yangi terminlarning yaratilishi yoki boshqa tillardan o'zlashuvi ularning tarjimasida nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligini taqozo etadi. Tarjimada termining asliyatdagi ma'nosini to'liq anglash, unga mos, aniqligi bilan ajralib turadigan muqobilni topish va shu orqali matnning mazmunini yaxlitligini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologik birliklarning monosemantik (bir ma'noli) bo'lishi tarjima jarayonida aniqlikni talab qiladi. Shu bilan birga, xorijiy voqealarni ifodalovchi terminlar, tarjima tilida mavjud bo'lmagan realiyalar, ko'plik shakllari yoki sohaviy farqlanishlar kabi omillar tarjimon oldiga qo'shimcha vazifalarni qo'yadi. Bu holatlarda tarjimon izohli tarjima, kalka, transliteratsiya yoki neologizm yaratish kabi usullardan foydalanishi mumkin. Termin tarjimasida har xil sinonimlarga yo'l qo'yish, tasviriy tarjimalardan foydalanish yoki sun'iy atamalar yaratish kabi yondashuvlar ilmiylik mezonlariga zid bo'lib, bunday yondashuvlardan qochish lozim. Makarova va Kashper kabi olimlar tomonidan taklif etilgan nazariy-uslubiy yondashuvlar tarjimon uchun samarali yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, terminlarni tarjima qilishda asosiy mezon aniqlik, kontekstga moslik va barqarorlikdir. Har bir tarjima jarayoni muayyan holatni tahlil qilishni talab etadi va har bir termining tarjimasi uning ilmiy mohiyatini buzmasdan amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. Toshkent, Yoshlar nashriyoti uyi, 2019
2. Sadiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'p tilli lug'at tarjimasi (o'zbek, olmon, ingliz, rus tillari). Namangan, 2017

3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2012
4. Кашпер А.И. Перевод немецкой научно-технической литературы. Москва, 1964
5. Макарова Л., Долуденко Е. Материалы по курсу теории и практики перевода. Москва, 2008
6. ЎзМУ: Таржимашунослик: долзарб масалалар ва истиқболлар. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2014